



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abdurahmon Azimov,
Ruxsiya Qo'chqorova

*SamDU Pedagogika ta'lumi fakulteti dotsenti
SamDU Pedagogika ta'lumi fakulteti talabasi*

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA CHET EL BOLALAR ADABIYOTI VAKILLARINING ASARLARINI O'RGATISHNING TA'LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada jahon bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni bu asarlarning bugungi zamonaviy shakli har doimgi an'anaviy usuldan qochgani holda o'quvchini erkin fikrlash, shaxsiy fikrini mustaqil bayon qila olishga qaratilgan asarlar ekanligi ta'kidlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet el asarlarini o'rgatishda ta'limiyl va tarbiyaviy jihatdan yondashilgan holda ularning jahon adabiyotiga bo'lgan qiziqish va mehrlarini oshirish masalalari qayd etib o'tiladi, shuningdek, Janni Rodarining "Hunarning hidi qanaqa?" she'rini o'qitish usullari va u bilan bog'liq topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, jahon bolalar adabiyoti, adabiy ertak, usul, erkin fikrlash, metod, klaster, grafik shakl.

EDUCATIONAL AND UPBRINGING SIGNIFICANCE OF TEACHING FOREIGN CHILDREN'S LITERATURE TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

Annotation: The article explores the unique features of global children's literature, particularly its contemporary form, which consistently avoids traditional methods and aims to stimulate free thinking and independent expression of the reader's personal opinions. When teaching students in lower grades foreign works, there is an emphasis on increasing their interest and love for world literature, as well as an examination of Gianni Rodari's work "What Does Craftsmanship Smell Like?" Teaching methods for poetry and associated tasks have been developed.

Keywords: primary school, world children's literature, literary fairy tale, method, free thinking, cluster, visual form.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИНОСТРАННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье рассматриваются уникальные особенности мировой детской литературы, в частности, ее современная форма, которая всегда избегает традиционных методов, нацелена на стимулирование свободного мышления и самостоятельного выражения личного мнения читателя. При обучении учащихся младших классов иностранным произведениям акцентируется важность повышения их интереса и любви к мировой литературе, а также рассматривается работа "Чем пахнет ремесло?" Джанни Родари. Разработаны методика преподавания поэзии и связанные с ней задачи.

Ключевые слова: начальная школа, мировая детская литература, литературная сказка, метод, свободное мышление, кластер, изобразительная форма.

Bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O‘zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida “pandnoma”, “nashihatnoma”, “axloq kitoblari” tarzida shakllangan bo‘lsa-da, uning rivojlanishi ma’rifatparvarlik, maktab-maorif tizimi islohotlari bilan hamohang tarzda o‘sib bordi.

Bolalar va o‘smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar majmuyi tom ma’noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi an’anaga aylangan.

Bolalar yozuvchisi N.Fozilovning fikricha, “Bolalar adabiyoti – nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi.... Bu adabiyot – hummatalab adabiyot, e’zoztalab adabiyot... Bolaning ko‘ngli ham shunday. Uni sindirib bo‘lmaydi. U – mehrtalab”. Bu fikrlarning yorqin isboti sifatida bolalar uchun mo‘ljallangan barcha asarlar yakunida hamisha yaxshilik bilan tugash, qahramonlarning murod-maqсадларига yetishishi, shuningdek, yomonlik jazosini topishini ko‘rishimiz mumkin. Chunki hali yosh o‘quvchining qalbida ishonuvchanlik, mehribonlik, jasurlik, soddadillik kabi sof tuyg‘ular jo‘shturayotgan bir paytda yomonlik, yovuzlik g‘alaba qozongan asar bilan nafaqat ularning qalbida, balki ong-u

shuurida ham o'chmas salbiy izlar qolishini o'zbek bolalar adabiyoti yozuvchi va shoirlari juda yaxshi bilishadi.

Jahon bolalar adabiyotining bugungi zamonaviy shakli har doimgi usuldan qochgani holda o'quvchini erkin fikrlash, shaxsiy fikrini mustaqil bayon qila olishga qaratilgan asarlar bilan boyib bormoqda. Xususan, doimiy qolipdagi "Bir bor ekan, bir yo'q ekan... dan boshlanib, murod-maqsadlariga yetishibdi" tipdagi ertaklar bilan emas, balki noodatiy tarzdagi fikrlar va ma'lumotlar bilan boyitilgan asarlar ommaga tatbiq etilmoqda. Bunday asarlar, albatta, o'quvchilarning fikrlarini dadil ayta olishi, g'oyalarini ravon so'zlay olishiga yordam beradi.

Yosh o'zbek kitobxonlari uchun jahon bolalar adabiyotining tutgan o'rni beqiyoq. Xususan, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida ham jahon bolalar adabiyoti vakillarining asarlaridan namunalar keltirilgan. Bunday asarlar asosida yaratilgan multfilmlar ham mashhur. Jumladan, "Qizil shapkacha" ertagini eshitmagan bola yoki uning multfilmi kirib bormagan xonodon bo'lmasa kerak. Ertak orqali bolalar ma'naviy olamini boyitish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish, shuningdek, mushohada qilishga o'rgatish mumkin. Buning uchun o'quvchilarga quyidagicha savollar berish ham mumkin:

– Siz qizil shapkachaning o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

– Nima deb o'ylaysiz, bo'rining yolg'onchiligi oqibatda o'ziga yaxshilik keltirdimi? kabi savollar bilan o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytirish hamda erkin fikrlashini oshirishi bilan birga ularning og'zaki nutqini o'stirishga ham xizmat qiladi. Albatta, bunda har bir o'quvchining fikri tinglanishi kerak. Bundan tashqari ushbu ertakni o'quvchilar bilan birgalikda rollarga bo'lib ijro etish ham o'quvchilar uchun tushunarli hamda esda qolarli bo'ladi. Misol uchun bo'ri obraziga qaysidir o'quvchini, qizil shapkacha obraziga yana bir o'quvchini, buvi obraziga ham bir o'quvchini qo'yib rollarga bo'lib ijro qilish orqali o'quvchilarga qiziqarli dars mashg'ulotini o'tish mumkin.

Jahon bolalar adabiyoti vakillari bilan o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining asarlarida mantiqan o'xshashliklarni ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari bilan Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari mantiqan o'xshash desak bo'ladi. Bilamizki, Gulliver sayohati davomida orolchalarda turfa odamlar ichida har xil vaziyatlarga tushadi. Hoshimjon ham qalpoqchasini kiyib, sayohati davomida bir qancha joylarda har xil vaziyatlar qurshovida qoladi. Bundan tashqari Hamza Imomberdiyevning "Ajdaho komida" ertagi bilan Sharl Perroning "Qizil shapkacha" ertaklarining mazmunan o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, o'zbek xalqning "Zumrad va Qimmat" ertagi bilan Sharl Perroning "Zolushka" ertaklaridagi voqeliklar mazmunan o'xshash. Bunday


o‘xshashliklarni yana davom ettirish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan ertak va asarlarda aynan o‘xshashlik bo‘lmasa-da, biroq, biz ulardagi voqelik, qahramonlarning taqdiri hamda mazmun jihatidan o‘xshashlik borligini kuzatishimiz mumkin. Aytaylik, Zolushkani o‘gay onasi va opa-singillari sira yoqtirmaydi, ammo tevarak-atrofdagi jamiki jonzot va insonlar unga boshqacha mehr bilan qarashadi. Xuddi shunday Zumradni ham o‘gay onasi va Qimmat hech yoqtirmas hamda kun bermas edi. Lekin Zumrad ham atrofdagilar uchun sevimli va yoqimli edi.

Ma’lum yozuvchi tomonidan xalq ertaklari, rivoyatlar, hayotiy voqealar asosida yaratilgan asar adabiy ertak sanaladi. Yozuvchi adabiy ertakni yaratishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga mos bo‘lgan syujet tanlab oladi va unda aks ettirilgan voqeahodisalarni o‘zi yashab turgan davr talabi asosida qayta ishlab, ijod asari yaratadi. Muallifi aniq, ya’ni adabiy ertaklar, ularni yaratgan adiblar Sharl Perro, Ernst Teodor Amadey Gofman, aka-uka Grimmlar, Vilgelm Gauf, Hans Kristian Andersen, Oskar Uayld, Aleksandr Pushkinlar jahon adabiyotidagi buyuk ertaknavis adiblar hisoblanib, ularning ijodi adabiyotning, ayniqsa, bolalar adabiyotining qimmabaho dur-u xazinasi hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida Janni Rodarining “Hunarning hidi qanaqa?” she’ri [5.48] keltirilgan. Dastlab o‘quvchilar Janni Rodarining hayoti va ijodi bilan ham qisqacha tanishtirib o‘tilgach, o‘qituvchidan kasb va hunarni izohlash talab etiladi. Kasb va hunar haqida suhbat o‘tkaziladi yoki ularning xizmatlari bilan bog‘liq voqealarini qisqa bayon qilib beradi. Bu jarayonda kasbi yoki hunari bilan bog‘liq faoliyati aks etgan grafik tasvirlardan ham foydalanish mumkin:



Matn o‘quvchilarga she’riy ohangni his qilgan holda ifodali o‘qib berilgach, she’rning umumiy g‘oyasi, so‘zlar zamirida yashiringan ma’nolarning berilishini, shoir ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali nima demoqchiligi tushuntirib beriladi, so‘ngra o‘quvchilardan bu she’rdan nimani tushunganliklari so‘raladi. O‘quvchilar birin-ketin o‘z tushunchalarini bayon qila boshlaydi, shu asnoda, ularning fikri inobatga olinadi va she’r tahlili o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin. Xususan, “klaster” metodidan foydalanish ham bu jarayonda samarali usullardan biri sanaladi.



Bunda bir qancha kasblarni doirachalarga joylashtirish mobaynida o‘quvchilar kasblar haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. O‘rtada qolgan doira ichiga "kasblar" deb yoziladi. Shu bilan birga o‘quvchilar bunda kasb va hunarni farqlashni ham o‘rganishadi. Negaki, o‘quvchilar kasblarni aytayotganda ular qaysi kasb, qaysi hunar ekanligining farqiga borishmaydi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga kasb bilan hunarning farqiga borishni o‘rgatishi kerak. Masalan, o‘qituvchilik, shifokorlik kasb bo‘lsa, kulolchilik, kashtachilik hunar turlariga kiradi. O‘quvchilar kasblar bilan tanishish jarayonida qaysidir kasbga mehri uyg‘onishi hamda shu kasbni kelajakda egallashi haqida o‘z fikrlarini aytishadi. Bundan tashqari o‘quvchilarga hunarning turlari hamda foydalari haqida ham tushunchalar berilishi lozim. Chunki o‘quvchilar yoshlikdan biror hunar egallahash sirlari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishadi.

Asar ustida ishslash jarayonida “*payraha*”, “*dimoqqa tegar*”, “*zamaska*”, “*qandolatchi*”, “*mag‘iz*”, “*omoch*” kabi so‘z va iboralarning ma’nosи izohlab tushuntiriladi, shuningdek, o‘quvchilarning diqqatini jalb etish va bilimini mustahkamlash maqsadida quyidagi topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

I-topshiriq. So‘zlarning izohlari bilan moslashtiring

1.	<i>Payraha</i>	a)	<i>hidi kelmoq</i>
2.	<i>dimoqqa tegar</i>	b)	<i>qandolatlar va umuman mahalliy shirinliklar tayyorlovchi hunarmand, shakarpaz.</i>
3.	<i>Zamaska</i>	s)	<i>yog‘och-taxta chopilganda, randalanganda hosil bo‘ladigan chiqindi.</i>
4.	<i>Qandolatchi</i>	d)	<i>danak, yong'oq kabi qattiq po'choqli mevalarning ichki qismi.</i>
5.	<i>mag‘iz</i>	e)	<i>ulov qo‘shib yer haydaladigan, metall tishli qadimgi eng oddiy yog‘och yoki temir asbob</i>
6.	<i>Omoch</i>	f)	<i>bo‘yoq hidi</i>

2-topshiriq. Bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali qanaqa hidlar kelishini bilib olasiz.

1. Har hunarning o‘zicha

Bordir _____ – belgisi.

2. Novvoyxonadan kelar

_____ ning isi.

3. Ustaxona yonidan

O‘tib qolsang-chi agar,

Yangi _____ , _____

Hidi dimoqqa tegar.

4. Oyna quchog‘idan ham

_____ hidi anqir.

5. Haydovchining kurtkasida

_____ hidi bor doim.

6. Ishchining kiyimidan

Kelar _____.

7. Shifokorning xalatidan

Anqir xushbo‘y _____.

8. Bاليqchining egnidan

_____ hidi chiqqanday.

Faqat bekorchilarning

Hidi bo‘lmas hech qanday.

Bolalar uchun mo‘ljallab yozilgan bu she’r ularda katta taassurot qoldiradi, chunki har bir kasb yoki hunar egasi o‘z ishining ustasi bo‘lsagina undan yoqimli hid taralishini, o‘quvchilar bekorchilik, biror kasb yoki hunarni egallamaslik yomon illat

ekanligini “bekorchidan yoqimli hid kelmasligini” bilib olishadi, shuningdek, kasb yoki hunar egallahsga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib boradi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarga jahon bolalar adabiyoti namunalarini o‘rgatish uchun ularda chet el adabiyotiga bo‘lgan qiziqish va mehrini oshirish lozim. Buning uchun ularda shu muhitni tasavvur qildira olish hamda qahramonlar o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish orqali asar ichiga olib kirish lozim. Bunda bolalar, albatta, har biri yaxshi xususiyatlari asar qahramoni o‘rniga o‘zlarini qo‘yib tasavvur qiladilar. Hech qaysi bola dangasa, qo‘rs, yomon xususiyatlari qahramon o‘rniga o‘zini qo‘yib tasavvur etmaydi, albatta. Chunki asar bilan tanishish mobaynida qaysi kasb yoki hunar egasi o‘quvchini ko‘proq qiziqtiradi, qaysi kasb yoki hunar egalarining jamiyat uchun foydasi muhimligini anglab yetadilar.

Bugungi kunda tarjima san’atining rivojlanib borayotganini, kitobxonlarning jahon adabiyotiga bo‘lgan qiziqishlarining ortayotganini ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarjima asarlarni o‘qish jarayonida mazmunini to‘liq idrok qila olmasligi mumkin, ammo ustoz tomonidan tushuntirilgan, yaxshi tahlil qilingan va hayotiy voqealar bilan asoslangan asarlarga o‘quvchida yaxshi taassurot qoldiradi, asar g‘oyasini anglab yetadi hamda o‘zlariga kerakli ta’limiy-tarbiyaviy jihatlarni anglay boshlaydi. Bu esa ularning ma’naviy tafakkurini oshiradi. Bunda, albatta, ona tili va adabiyot hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilardan yordamini ayamasligi kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ahranqulov A., Rahmonqulov A. Jahon bolalar adabiyoti namoyondalari. Farg‘ona, 2012.
2. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. „Innovatsiya – Ziyo”, 2020, 276 bet.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent 2018.
4. Qosim K. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent. „NOSHIR”, 2009, 352 bet
5. O‘qish savodxonligi 1-qism [Matn] darslik 3-sinf uchun. U. B. Aydarova, N. K. Azizova, M. E. Toirova. Novda. –Toshkent, 2023.